

ARAB TILIDA FE'L MAYLLARI.

Jo'raboyev A.

TDSHU Arab filologiya kafedrası

Lingvistika (arab) yo'nalishi

2- kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada biz arab tili, uning shakllanish bosqichlari, xarakteristikasi, ichki imkoniyatlari haqida ma'lumot berdik. Fe'l boblari haqida alohida to'xtalib, misollar bilan boyitildi.

Kalit so'zlar: Arab tili, lahjalar, fe'l, fe'l boblari, arab tilida hosilalar, fe'l-larning yasalishi

Arab tilidagi so'z turkumlari, bizning tillarni o'rganishda odat bo'lganidek, o'n yoki shunga yaqin adadlarga ega deb tushunilmaydi. Ular uchta: Fe'l, ism va harflar. Arab morfologiyasidagi so'z turkumlari, aslida, turkum guruhlaridir. Oladi. So'nggi ikkitasida fe'llik xususiyatlari ham mavjuddir. Ismlar kelishik (bosh, qaratqich va tushum), jins (muzakkar va muannas), grammatik son (birlik, ikkilik va ko'plik) va holat (aniqlik va noaniqlik) kategoriyalariga ega. So'zlarning o'zaro bog'lanishlari so'z tartibi bilan ham, kelishiklar yordami bilan ham, shuningdek, yordamchi so'zlar vositasi bilan ham olib boriladi.

Arab tilida ish-harakat yoki holatni bildiruvchi bu so'z turkumi arab tili grammatikasida juda katta o'rin tutadi, chunki juda ko'p boshqa turkum so'zlari ham asosan fe'l o'zaklari zaminida yasaladi. Fe'llar uch o'zak undoshli va to'rt o'zak undoshlilarga bo'linadi va ularning ko'pchiligini uch o'zak undoshli fe'llar tashkil etadi. Bu o'zak undoshlar atrofida unilarni o'zgartirish, u yoki bu o'zak undoshni ikkilantirish, biror noo'zak undoshni kiritish yo'li bilan fe'llarning xosila shakllari yasaladi. Hosila shakldagi fe'llarning, tabiiyki, mazmunida ham o'zgarish sodir bo'ladi. Hosila shakllarni boblar deb atash qabul qilingan. Uch o'zak undoshli fe'llarning 15ta, 4 o'zak undoshli fe'llarning 4ta bobi mavjuddir. Bu boblarni o'zaro farqlash uchun nom qo'yilgan. Arab tadqiqotchilari uch o'zak undoshli fe'lning boshlang'ich shaklini 4 مجرد ثلاثي فعل o'zak undoshli fe'lning boshlang'ich shaklini esa shu bobning harakat nomi (masdari) atamasi bilan ataganlardir. Masalan: باب الإفتعال va hokazo.

Arab tilida ham barcha fe'l boblari o'tgan va hozirgi-kelasi zamonga egadir. Ular shaxsda, sonda, jinsda tuslanadi. Fe'llar arab tilida aniq va majhul nisbatga ega bo'ladi. Arab tilida 5 ta fe'l mayli bor.

Arab tilida esa fe'llar quyidagicha tasniflanadi. Arab tilidagi fe'llar fe'l o'zaklarining tarkibi, bajaradigan vazifasiga qarab tasniflanadi.

Umumiy tarzda arab fe'llari tuzilishi tarkibiga qarab quyidagicha tasniflanadi.

1) To'g'ri fe'llar *F9*

1 سالمة افعال

a) Solim fe'llar

b) hamzali fe'llar مهموزة افعال

2) Muzaof fe'llar افعال مضاعفة

a) sulosiy

b) ruboiy

3) Mutal fe'llar معتلة افعال

a) misal مثالية افعال

b) ajvaf جوفاء افعال

c) noqis illatli fe'llar ناقصة افعال

4) Lafif fe'llar

a) lafifi mafuq

b) lafifi maqrun

Arab tilida to'g'ri fe'llar turkumiga tarkibida illatli harflar ishtirok etmagan fe'llar kiradi. Masalan كتب kabi fe'llar. Uning tarkibida illatli harflar ya'ni و، ي، ا harflari ishlatilmagan. Shunga o'xshash barcha fe'llar solim fe'llar deb yuritiladi. O'zak harflardan biri hamza bo'lgan fe'llarga hamzali fe'llar deyiladi. Hamza fe'l o'zagidagi uchta undoshdan biri bo'lishi mumkindir. Hamzali fe'llarning «noto'g'ri fe'llar» guruhiga kiritilishiga sabab, hamza bunday so'zlarda turlicha yoziladi, ya'ni hamzaga turli harflar taglik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari ba'zi holatlarda hamzadan oldin kelayotgan unlining uzayishi sababli (o'zak undosh bo'lib kelayotgan) hamza tushib qoladi. Hamzaning so'zda ishlatilishiga ko'ra quyidagicha bo'lish mumkin.

Birinchi o'zak harfi hamzali;

Ikkinchi o'zak harfi hamzali;

Uchinchi o'zak harfi hamzali.

Hamzali fe'llarning "noto'g'riligi" yozuvda bilinadi. Chunki, u kelish o'rniga ko'ra taglik harflari o'zgarib keladi.

So'z boshida hamza uchun "alif" taglik bo'lib xizmat qiladi; إذن، أخذ

So'z o'rtasida: Sukunli harfdan keyin fatha kelsa alif, kasra kelsa ي، zamma kelsa و taglik bo'lib xizmat qiladi; يبؤس، يبئس، يسأل

Ba'zan, ي harfidan keyin kelgan fathaga "yoy" taglik bo'ladi. هيئة

Unli harfdan keyin harakat: agar hamza sukunli bo'lsa, uning tagligi harakatlarga mos ravishda qo'yiladi, fatha bo'lsa, "alif", kasra bo'lsa, yoy, zamma bo'lsa, vov bo'ladi. يأخذ، يؤخذ، خطئت، Agar hamza fathali bo'lsa ham, o'zidan oldin kelgan harakatning tagligini oladi. تبطوان، سؤال، قرئت

Agar hamza kasrali bo'lsa, oldidagi harakat qanday bo'lishiga qaramasdan uning tagligi "ي" bo'ladi. سأل، سئل

Ikkilangan-hamzali fe'llar ham tuslangan vaqtda yuqoridagi hamzaga taalluqli qoidalarga bo'ysunadi.¹

Muzoaf fe'llarining sulosiy bo'limini ikkilangan fe'llar tashkil qiladi.

Ikkilangan fe'llar deb ikkinchi va uchinchi o'zak harfi bir xil bo'lgan fe'llarga aytiladi. Ikkilangan fe'llarning yasalish xususiyatlari:

Bir xil o'zak harflar bitta "tashdid" orqali ifodalanadigan tovushga birikadi. دَلَّ – دَلَّ

Agar bir xil o'zakli harflarning birinchisidan keyin harakat kelsa, bu harakat orqaga, ya'ni sukunli harfga ko'chadi.

Agar birinchi o'zak harfdan keyin cho'ziq alif bo'lsa, keyingi ikki harf bir bir bilan tashdid orqali birlashadi. دَال – دَالْ Birinchi o'zak harfdan keyin boshqa cho'ziq unli kelsa, tashdid hodisasi ro'y bermaydi. لَ دُول

Tashdid xodisasi quyidagi xolatlarda ro'y beraydi:

Agar ikki o'zakli harfning ikkinchisidan so'ng harakat bo'lmay sukun bo'lsa; دللت , فررت .

Agar ikki o'zakli harfning birinchisidan keyin cho'ziq unli bo'lsa; , مدلول , تدليل , إدلال .

Agar ikki o'zakli harfning birinchisi ikkilangan bo'lsa; دال , دال

Qisqa mayl ikki yo'l bilan yasaladi:

Majhul nisbatda qisqa unlini tushurib qoldirish bilan. Bunday holatda bo'g'inning oxirida ikkita unli birga bo'lib qoladi. Ikkita unlini bir joyda kelishini oldini olish (الساكنين التقاء) oxirgi unli harfdan keyin qisqa "a" unlisi yoki "i" qo'shiladi; رُ يَف , رُ يَف , رُ يَف . To'g'ri fe'l shakli orqali; masalan: يَفْرُز , يَدُلُّ Lekin, bunday qilish ikkilik yoki ko'plikdan keyin munosib emasdir.

Ular birinchi yo'l orqali yasaladi. لم يدلوا لم , يدلوا لم . Muzoaf ruboiy fe'llari to'rt o'zakli ikkilangan fe'llar, u birinchi va ikkinchi harfi takrorlanadigan fe'llardir. Arab tilida bu fe'llar مضعف الرباعي deyiladi; بلبل , وسوس زلزل . Uning tuslanishi ham to'g'ri fe'llar kabi tuslanadi va hech qanday o'zgarishga uchramaydi.

Mu'tal fe'llarni zaif fe'llar deb ham ataymiz. Ularning quyidagi turlarini ko'rib o'tamiz: الممثل , ya'ni to'g'riga o'xshash bo'ladi. Uning birinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. وعد , الأجوف ينع , يئس , وجل . وعد , ya'ni bo'sh fe'llar. Bu fe'llar ikkinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. الناقص سار , قال , noqis fe'llar. Bu fe'llarning uchinchi o'zak harfi illatli bo'ladi. رضي , سرو , بني دعا .

Mohiyatan olganda ular bo'g'inli harflar emasdir. ʼ harfi zaif o'zak undoshni anglatmaydi, u faqat unli tovushning cho'ziqligi yoki ء belgisiga taglikni bildiradi. Misal fe'llar so'z boshida و va ي har qanday harakat bilan hech qanday o'zgarishlarga uchramaydi. Masalan: ولادة , ووصل , يبس , وصل .

So'z o'rtasida: و va ي o'z harakatiga ega bo'ladi. Agar oldinda turgan sukunli

¹ Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г

harf bo'lsa, unda: va harfi o'z harakatini o'zidan oldin kelgan harfga beradi va undan keyin zaif undosh emas, cho'ziqlik belgisi yoki qo'yiladi. Albatta ular harakatga mos ravishda qo'yiladi:

يسأُر > يُسَيِّرُ , يُقَالُ > يُقُولُ beradi: o'zidan va ي
يَقُولُ > مُ يَقُو , يَرُ يس > رُ يسني beradi: o'zidan va ي
يَقُولُ > يَقُولُ beradi: o'zidan و

تبيين, تسيير, تقويم, va dan keyin kelgan zaif undosh o'zrgarmasdan qoladi: ,
تبيان

Quyidagi holatlarda zaif harf tushib qoladi: 4 va 10 bob bo'sh fe'llarining masdarida, masalan: مقول > مقول مسير, مقول إقامة fe'lining majhul nisbat sifatdoshida: Agar zaif harfdan oldin harakatli harf kelsa, unda: zaif harf o'z harakatiga ega bo'lsa, unda bu harakat tushib qoladi. U quyidagicha sodir bo'ladi:²

agar oldingi harf 'fatha' harakatiga ega bo'lsa, undan keyin ا qo'yiladi. < قَالَ قَوْلٌ > طَالَ < طَوْلٌ , خَافَ > فَ خَوْ , سَارَ > سَيَّرَ ,

agar oldin kelayotgan harf 'kasra' harakatli bo'lsa, و , و , hamda ي , ي ning o'rniga ي yoziladi. يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي

agar oldingi harf 'zamma' harakatiga ega bo'lsa, و , و , ning o'rniga ي yoziladi: يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي agar oldingi harf 'kasra' yoki 'zamma' harakatiga, zaif undosh 'fatha' harakatiga ega bo'lsa, zaif harf bu holatda tushib qolmaydi. سَرَوْتُ , سَرَوْتُ 'Kasra'dan so'ng kelgan ي < و ga aylanadi. دُع > و دُع unlining cho'ziqligini bildiruvchi belgi bo'lgan taqdirda, و va ي harflaridan keyin kelganlarda quyidagi variantlar bo'ladi: agar cho'zuvchi ا bo'lsa, zaif harf tushib qolmaydi. تَلْقِيَانِ . Lekin 'kasra'dan so'ng ي > و ga aylanishi mumkin: قوام. agar cho'ziqlik belgilar yoki ي bo'lsa, oldingi kasrali yoki zammali harfdagi ي ي yoki و tushib qoladi, undan oldingi undosh harf esa qolgan harfga munosib "harakat" oladi. يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي لَقُوا > يُولُوا لَق , تَعْرُونَ > تَعْرُونَ

Agar oldingi harfda 'fatha' harakati bo'lsa, unda و , و , ي tushib qoladi. Qolgan ي yoki ي harfi 'sukun' oladi. Masalan: يِرْمِي > يِرْمِي , يِرْمِي > يِرْمِي PF تَرْضُونَ > تَرْضُونَ. 12

Agar zaif harfdan oldin ا , و yoki ي bo'lsa: zaif harf o'z harakati bilan, o'zgarishsiz qoladi: قوام , تقاوم , قوام ; ر سوي , ر تساي , ساير , م قوو , تقاوم , قوام ; ba'zi shakllarda alifdan keyin zaif harflar hamza bilan almashadi: birinchi bob bo'sh fe'llarining majhul nisbat sifatdoshida: إلقاء > إلقاء , إلقاء > إلقاء , إلقاء > إلقاء , إلقاء > إلقاء .

Ba'zan quyidagi holatlarda و yoki ي sukunlik bo'ladi:

1) fathali harfdan so'ng zaif undosh o'zgarishsiz qoladi: , رميث , غزوث , مولود , غزوث , رميث .
س تبيي.

² Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г

2) kasrali yoki zammali harfdan keyin zaif harf o‘z sukunini yo‘qotadi, kasradan so‘ng و ning o‘rniga ی yoziladi, zammadan so‘ng o‘zak ی ning o‘rniga و yoziladi. إيصال>إوصال, تويس>تويس, سروت>سروت, لقيت>لقيت.

So‘z oxirida quyidagi holatlar ro‘y berishi mumkin: Zaif harf o‘z harakatiga ega, bunda quyidagi variantlar yuz berishi mumkindir.³

Agar oldingi harf sukunli bo‘lsa, zaif harf o‘zgarishsiz qoladi, الرمي, الغزو

Agar oldingi harf harakatli bo‘lsa, unda fathadan oldin zaif harakat o‘z harakatini yo‘qotadi va cho‘ziqlik belgisi bilan almashadi. Agar o‘zak harf و bo‘lsa, unda 3-shaxs I bob o‘tgan zamonda uning o‘rniga alif yoziladi, boshqa holatlarda ي yoziladi. تلقى>تلقى, رمى>رمى, غزا>غزو

Fe’llar tarkibiga zamon shakllari, darajalari, shuningdek, o‘z mazmunlariga ko‘ra, sifatdosh va masdarlar kiradi. Umuman, fe’llar turli shakllarning juda rivojlanganligi va keng qo‘llanilishi, fe’liy boblarning mavjudligi, barcha boblarning hamma zamonlarda tuslanishi, shaxs shakllari (birlik, ikkilik, ko‘plik) ning mavjudligi, mayllar (aniqlik, buyruq, istak, shart, kuchaytirma ning rivojlanganligi, darajalar (aniq, majhul) ning mavjudligi bilan aniqlanadi. Fe’llarning har biri alohida ma’no anglatishi va ayrim qo‘llanishidan tashqari yana hosilalar – qarindosh negizlar yasash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Hosilalar yasashda affiksatsiya usulidan keng va o‘ziga xos foydalaniladi. Bundan tashqari yana fonologik vositalar ham mavjud:

1.O‘zakni o‘stirish yo‘li bilan:

a) o‘zakning biror unlisi cho‘zib talaffuz qilinadi:

kaataba) yozishmoq (-) كاتب) yozmoq (kataba)كتب
musobaqalashilmoq (-) سبق) oshib o‘tilmoq (subiqa)سبق

b) o‘zakning biror undoshi ikkilantiriladi:

o‘rgatmoq (-) درس) darasa) درس

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbek tilidan farqli o‘laroq arab tilidagi fe’llar infinitiv, ya’ni fe’lning noaniq shakligi ega emas. Shuning uchun zamonaviy lug‘atlarda fe’lning o‘tgan zamon III shaxs, birlik, muzakkar shakli shartli ravishda infinitiv sifatida qabul qilingan. Masalan: كتب bu fe’lning asli ma’nosi “u yozdi”, shartli ma’nosi: yozmoq. Uch o‘zak undoshli fe’llar arab tilida fe’llarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular o‘n beshta bobda aks ettirilgan. Shulardan o‘nta bob hozirgi adabiy tilida ko‘p qo‘llaniladi. Qolgan beshta bob esa qadimgi arab tilida ishlatilgan, keyinchalik iste’moldan chiqib ketgan. Arab tilida fe’l narsa(shaxs)ning harakat yo‘holatini ifodalaydi. Bu xususiyatga muvofiq, fe’llarni ikki turga ajratish mumkin: harakat bildiruvchi va holat bildiruvchi fe’llar. Arab tilida fe’llar o‘timli va o‘timsiz bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, har bir fe’l shaklida mujassamlangan zamon, undan anglashilgan ish- harakat yoki nutq lahzasiga munosabatini ko‘rsatadi.

³ Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г
2. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. «Учебник арабского языка», Москва, «Восточная литература» РАН, 1998 г.
3. Н.И. Иброҳимов, М. Юсупов —Араб тили грамматикаси, 1,2- жилдлар, Тошкент, —Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997-2002 йиллар
4. Абдужабборов А. «Араб тили дарслиги», Тошкент, 2007
5. Гранде Б.М., «Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении», Москва, «Восточная литература» РАН, 1998 г.
6. Яковенко Э. В. «Арабский язык» (практический курс переводов), Россия, Москва, «Восточная литература» РАН, 2005 г.
7. Лебедев В.В. «Лабораторные работы», Россия, Москва, 2007 г.
8. Баранов Х.К. «Арабско - русский словарь», Москва, 2005 г.
9. Борисов Б.Г. «Русско - арабский словарь», Москва, 2005 г.
10. М. Ҳасанов., М. Абзалова. Араб тили дарслари. Тошкент, 2009